

KREDIT MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Ròziyev Òktam Òlmasovich

*Òzbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi
Fuqarolik yònalishi bòyicha 1-guruh tinglovchisi*

Annotasiya: *O'zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilish tufayli uning mavjudligi va rivojlanishining ko'p jihatlari sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolar soni doimiy ravishda oshib bormoqda. Bozor iqtisodiyotida kredit tizimining shakllanishi va faoliyatining huquqiy asoslari muhim bo'lib, mazkur munosabatlarni tartibga solishda sud jarayonlarini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif mazkur maqolada ana shu jihatlarni inobatga olgan va o'rgangan.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiyot, tadbirkor, kredit, shatrnama, qonun, sud, tizim va jarayon*

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida bugungi global o'zgarishlar, aholi turmush tarzi, hayot talabi va qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda ettita ustuvor yo'nalishdagi maqsad va vazifalar belgilangan. Taraqqiyot strategiyasi 100 ta ustuvor maqsad bo'lib, unda sud islohotlari bilan bog'liq bandlar bevosita ikkinchi yo'nalish doirasida belgilangan. Jumladan, "Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik sub'ektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish" nomli 15-maqsadga erishish vazifalari ko'zda tutilganki, bu vazifalar sud jarayonidagi shaffoflik va adolatni, tadbirkorlar uchun yaratilgan imtiyozlarning huquqiy asoslarini qamrab oladi. Shu sababli mamlakatimizda tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarini himoya qilish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda mavjud bo'lgan to'siqlarni bartaraf etish, biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va respublikaning investisiyaviy jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, o'tgan yillar mobaynida tadbirkorlik faoliyatini bevosita yoki bilvosita tartibga soluvchi 170 ga yaqin O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, shu jumladan, 300 ga yaqin Prezident hujjatlari, 2000 ga yaqin hukumat qarorlari qabul qilingan. Jumladan, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi, "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi, "Raqobat to'g'risida"gi, "Investisiyalar va investisiya faoliyati to'g'risida"gi qonunlar qabul qilingan. Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlarini samarali himoya qilishga qaratilgan muhim tashkiliy mexanizmlardan biri Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil instituti tashkil etilgani va amaliy faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xorijiy tajribaga e'tibor bersak, bu borada konstitusiyaviy kafolat berilgani jumladan, Xorijiy

davlatlarda, xususan, Xitoy, Xorvatiya va Vetnam Konstitusiyalarida investisiyaviy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan normalar mavjud.

Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasi Konstitusiyasining

18-moddasida Xitoy Xalq Respublikasi xorijiy korxonalariga, boshqa tashqi iqtisodiy tashkilotlarga va investorlarga Xitoyga sarmoya kiritishga va Xitoy Xalq Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Xitoy korxonalarini va boshqa iqtisodiy tashkilotlar bilan iqtisodiy hamkorlikning turli shakllariga kirishishga ruxsat berishi belgilangan. Xorvatiya Konstitusiyasining 49-moddasida esa chet ellik investorlarga investisiya qilingan foyda va kapitalni tekin o'tkazish va repatriasiya qilish kafolatlanishi nazarda tutilgan. Vetnam Konstitusiyasiga ko'ra, davlat tomonidan tadbirkorlar, korxonalar, jismoniy shaxslar va boshqa tashkilotlarning iqtisodiyot tarmoqlariga va milliy qurilishning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadigan sarmoya kiritishi, ishlab chiqarishi va tadbirkorlik bilan shug'ullanishi rag'batlantiriladi, ularga qulay shart-sharoitlar yaratiladi, jismoniy shaxslarning, investisiya, ishlab chiqarish va tadbirkorlik tashkilotlarining shaxsiy mulki qonun bilan himoya qilinadi. E'tiborli jihati, bunda yangilangan Konstitusiyamizda tadbirkorlik faoliyatining konstitusiyaviy kafolatlari mustahkamlangani, erga nisbatan xususiy mulk huquqining e'tirof etilishi qishloq xo'jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar va fuqarolar uchun yangidan yangi imkoniyatlarni ochib berdi.

Yangilangan Konstitusiyamizning 67-moddasiga "Tadbirkorlar qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyatining yo'nalishini mustaqil ravishda tanlashga haqli" degan mazmundagi tom ma'noda asos soluvchi normaning kiritilishi orqali mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining konstitusiyaviy kafolatlari yanada mustahkamlandi. Mazkur norma tadbirkorlik faoliyatini samarali yuritishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan har yili tadbirkorlikni rivojlantirish, uni qo'llab qo'vvatlash va ularga ko'mak bo'lish uchun chiqarayotgan Farmonlarining uchdan ikkisida ham aynan tadbirkorlarga berilishi lozim bo'lgan imtiyozlar, jumladan, ularning faoliyatini imtiyozli moliyalashtirishga qaratib kelinmoqda.

Jumladan, kredit shartnomasi haqida qisqacha ma'lumot bersak: kredit shartnomasi bo'yicha bir taraf - bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi.

Kredit bilan bog'liq masalalarni huquqiy tartibga soluvchi bir qancha qonunlar qabul qilinib, ularni joriy qilish natijasida mamlakatimiz rivojiga katta xissa qo'shildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni, "Markaziy bank to'g'risida"gi qonuni va "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida"gi qonuni va boshqa bir qancha qonunlarni sanab o'tish mumkin. Barcha kredit shartnomalarning huquqiy faoliyati bilan bog'liq

jarayonlar bir-biriga o'hash normalar bilan tartibga solinadi. Xususan, jahon miqyosidagi kredit munosabatida ham huquqiy munosabatlar o'hash bo'lib, kredit shartnomalari qo'yidagi hollarda bekor bo'ladi:

- kredit shartnomasining muddati tugashi bilan;
- taraflardan biri shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmagan taqdirda;
- kredit shartnomasidagi qarzdor tomonidan muddatidan oldin pul mablag'ining qaytarilishi va hokazo xollarda.

Bank va mijoz o'rtasida kelishmovchiliklar esa sud tomonidan ko'rib chiqiladi. Demak, mijoz tomonidan qonuniy echim yo'llari barcha tadbirorlar uchun muhimdir.

Jumladan, 2024 yil ham "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilindi. Mazkur yilning nomidan ham ko'rinib turibdiki, yosh tadbirkorlar uchun davlat tomonidan imtiyozli kreditlar berilishi, sharoitlar yaratilishiga alohida e'tibor qartiladi va uning huquqiy asoslari beriladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institusional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi 14.09.2023 yildagi PQ-306-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 4 sentyabrdagi PQ-292-sonli «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023 yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarorlariga ko'ra, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha «uzluksiz xizmatlar zanjiri»ni yaratish maqsadida Biznesni rivojlantirish banki tadbirkorlik uchun Dasturni samarali amalga oshirish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish bo'yicha asosiy tayanch bank etib belgilangan.

Dasturni 2023 — 2026 yillarda amalga oshirish uchun davlat mablag'lari hisobidan 6 trillion so'm va xalqaro moliya institutlarining 1,2 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag'lari yo'naltirilgan. Kichik biznesga ko'maklashish markazi» mas'uliyati cheklangan jamiyatlariga kamida bir yil mobaynida faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari, o'zini o'zi band qilgan shaxslar, hunarmandlar, kasanachilar, nodavlat ta'lim tashkilotlari, uch va undan ortiq kishini doimiy ish bilan ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari hamda oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida o'z biznes loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirib, ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar onlayn ariza yuborish orqali Dasturda ishtirok etish huquqiga ega bo'lishi belgilangan. Qarorda qayd etilganidek, moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'nalishida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish yoki kengaytirish uchun 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag'lar uchun revolver tarzda 3 yilgacha muddatga yillik Markaziy bank asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada 1,5 milliard so'mgacha kreditlar ajratish va (yoki) asosiy vositalarni sotib olish uchun lizing berish. Bunda, 100 million so'mgacha kreditlarni garovsiz, 150 million so'mgacha kreditlarni garov talabi 50 foizgacha pasaytirilgan holda ajratish imkoniyati berilgan. Ikkinichdan, qiymati 1,5 milliard so'mgacha bo'lgan asosiy vositalarni 7 yilgacha bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan qarzga berish nazarda tutilgan.

24 oydan ortiq faoliyat yuritayotgan va oxirgi 12 oyda aylanma mablag'lari miqdori 1 milliard so'mdan 10 milliard so'mgacha bo'lgan hamda kamida 10 nafar kishini doimiy ish bilan ta'minlagan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining yangi loyihalariga va mavjud ishlab chiqarishni kengaytirishga oid loyihalariga bo'sh turgan davlat mulki ob'ektlari va er maydonlari, asbob-uskunalar, bino-inshootlar va boshqa ko'rinishdagi moddiy aktivlar bilan 20 foizgacha, biroq 1 milliard so'mdan ortiq bo'lmagan qiymatda ulushdor bo'lib kirish imtiyozi berilgani hamda innovation ishlanmalarni tijoratlashtirish, yuqori texnologik startap loyihalariga davlat ilmiy dasturlari doirasida 2 milliard so'mgacha grant mablag'larini ajratilgan. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bo'yicha yagona davlat siyosatini yuritish va davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimliklar, tijorat banklari, Jamg'arma va markazlar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tuzilmasida Kichik va o'rta biznes rivojlanishini tahlil qilish, qo'llab-quvvatlash va sohada davlat siyosatini muvofiqlashtirish departamenti tashkil etilgani diqqatga sazovor. Tadbirkorlarga bozor kon'yunkturasi va biznesni tashkil qilish masalalarida uzluksiz ishlovchi bank va konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi «Biznes 24/7» — «yagona darcha» tizimi yaratilgan hamda faoliyatini ta'minlamoqda²¹.

Bu islohotlarda inson manfaati ustunligi, barchaning qonun oldida tengligi Yangi O'zbekistonning bosh maqsadi, bo'lib, mazkur maqsadni ta'minlashda sud hokimiyatining o'rnini muhimdir. Aynan, O'zbekiston Prezidentining 2017 yil 30 noyabrda "Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni dalillar maqbulligi masalasini aniqlashtirishda muhim qadam bo'ldi. Shuningdek, Jinoyat-prosessual kodeksning 95-moddasiga 2018 yil 4 aprelda dalillarning maqbul emasligiga oid yangi normalar kiritilgan edi. Shu bois ham, sud-huquq sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirishga ustuvor e'tibor qaratilishi natijasida sudlar mustaqilligi va odil sudlovga bo'lgan huquqni himoya qilish sohasida xalqaro standartlarni implementatsiya qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar qabul qilindi. Bir sud – bir instansiya O'zbekiston Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni sud instansiyalarining kamayishi va nazoratning to'liq bekor qilinishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Farmon doirasida bir qator muhim natijalarga erishildi. Mamlakatimiz hayotining boshqa sohalari kabi sud tizimi faoliyatiga axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etilishi ham muhim yangilik bo'lib, O'zbekiston prezidentining "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori mazkur sohani huquqiy jihatdan yangi pog'onaga olib chiqdi. Natijada fuqaro va tadbirkorlar masofadan turib, sudlarga elektron shaklda murojaat qilish va sud hujjatlarini shu tartibda olish; ikkinchidan, fuqaroni ovora qilmagan holda sudya tomonidan axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish orqali ish uchun zarur hujjatlarni onlayn tarzda olish; uchinchidan, dunyoning

²¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 14 сентябрдаги ПҚ-306-сон қарори. <https://lex.uz/>

istalgan nuqtasidan turib, sud majlisida mobil videokonferensaloqa tizimi orqali ishtirok etish; to'rtinchidan, sud qarorlarini ishtirokchilarga inson omilisiz onlayn taqdim etish; beshinchidan, fuqaro sudlarda ishlarni ko'rib chiqish jarayonini onlayn tarzda kuzatib borishiga sharoit yaratish; oltinchidan, Oliy sudning Interaktiv xizmatlar portali orqali fuqaro sud binosiga tashrif buyurmasdan turib, nizosini masofadan hal qila olish huquqiga ega bo'lishdi. Jumladan, 2018 yildan "E-SUD" yagona markazlashtirilgan axborot tizimi amalda qo'llanilib kelsada, endigi bu raqamlashtirish tizim uning mantiqiy davomi sifatida qulaylik yaratdi. Tadbirkorlarimiz uchun esa, ham vaftdan, ham ortiqcha sarf xarajatdan engil va qulaydir. 2018 yil dekabrda sud qarorlari internet tarmog'ida e'lon qilinmoqda. Hozirga qadar qariyb 2 million sud qarori shu tarmoqda e'lon qilingan.

2020 – 2023 yillarda sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish dasturi tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra,

2021 yil 1 yanvardan boshlab barcha sudlarda sud majlislarini ish bo'yicha taraflarning iltimosnomasi va raislik qiluvchining roziligi bilan audioyozuvdan foydalangan holda qayd etib borish hamda sud majlislari bayonnomalarini ushbu tizimdan foydalangan holda shakllantirilishi,

2021 yil 1 iyuldan boshlab apellyasiya va kassasiya instansiyasi sudlarida ishlarni sudyalarda o'rtasida avtomatik ravishda taqsimlanayotgani,

2021 yil 1 oktyabrdan boshlab barcha ishtirokchilarni sud majlislarining vaqti va joyi haqida «SMS» xabar orqali bepul asosda xabardor qilish yo'lga qo'yilgani, 2022 yil 1 yanvardan boshlab sud qarorlarini ish bo'yicha taraflarga onlayn hamda ularning iltimosnomasi bo'yicha esa qog'oz shaklida taqdim etilayotgani, 2022 yil 1 iyulga qadar sud hokimiyati organlari faoliyatida, jumladan fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga odil sudlovga erishishda qulaylik yaratish maqsadida 10 ga yaqin interaktiv xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yilgani;

2023 yil 1 yanvardan boshlab sud ishlarini davlat arxiviga elektron shaklda topshirish va qabul qilish amalda bo'layotgani hamda sudlar, Sudyalarda oliy kengashi hamda Sudyalarda oliy maktabida axborot-kommunikasiya texnologiyalari infratuzilmasini yanada yaxshilangani mazkur sohaning huquqiy asoslarini namoyon etmoqda. Demak, fuqaroviy-huquqiy munosbatlarda kredit munosabatlari ham kirar ekan, bunda kreditdan oqilona foydalanish masalalariga e'tibor qaratish lozim.

Shu bois ham, mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini, eng avvalo, jinoiy tajovuzlardan himoya qilishning ishonchli kafolatlarini ta'minlashga, shuningdek, inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga, qonuniy manfaatlarini cheklanishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Sud ishlarining adolatliligi, ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash uchun "elektron adolat" tizimi joriy etildi. Nodavlat sudekspertiza tashkilotlarini tuzishga yo'l ochildi.

Konstitusiyada kiritilgan mazkur qo'shimchalar erkin bozor iqtisodiyotining eng muhim talabini o'zida ifoda etib, davlatni tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etishga doir asosiy yondashuvini belgiladi. "Qonunda taqiqlanmagan har qanday

faoliyatga ruxsat beriladi” tamoyili asosida tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy mezonlarini konstitusiyaviy darajada mustahkamladi.

FOYDALANGAN MANBALAR:

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI. <https://lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 4 sentyabrdagi PQ-292-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023 yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori. LexUZ
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 14 sentyabrdagi PQ-306-son qarori. <https://lex.uz>
4. O‘zbekiston Prezidentining 2017 yil 30 noyabrdagi “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni
5. O‘zbekiston Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi “Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni
6. Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.09.2020 y.N PQ-4818 qarori. <https://nrm.uz>